

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL



Iyul №7, 2026

Агробизнес, наука и
технология

AGROBIZNES FAN VA TEXNOLOGIYALAR

Agribusiness, science and
technology

№ 083688



ISSN:
3060-5245

Toshkent-2026

Platform &
workflow by
OJS / PKP

BOSH MUHARRIR

Oblomurov Narzullo Naimovich – i.f.d. (DSc), professor.

Bosh muharrir o'rinbosarlari:

Islamov Soxib Yaxshibekovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Farmonov To'liqin Xayitmurodovich – i.f.d. (DSc), professor.

Muharrir:

Beglayev Uchqun Xurramovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent.

Tahrir hay'atining xalqaro a'zolari:

Kusainov Xalel Xaymullayevich – i.f.d. professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)

Vilija Aleknevičienė – i.f.d. professor (Universitet Vitovta Velikogo)

Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)

Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich – i.f.d. professor (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo'jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))

Daiva Makutenene – professor, (Vitautas Magnus universiteti, Litva)

Xaitboyeva Nargiza Alikulovna – i.f.d. dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)

Tahrir hay'ati:**08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:**

Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), professor;

Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), professor;

Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), professor;

Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), professor;

Askarov Nazimjon Niyozovich – i.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Altinbek Yangibayevich – i.f.d. (DSc), professor;

Boltayev Abror Sayitmuradovich – i.f.d. (DSc), dotsent;

Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n. professor;

Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n. dotsent;

Achilov Mashrab Ulug'bekovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Galimova Feryuza Rafikovna – i.f.n. dotsent;

Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Yangiboyev Dilshod G'ulomovich – i.f.f.d. (PhD);

Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n. dotsent;

Dexkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Roziqov Jahongir Mustaqim o'g'li – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Ibragimova Madina Ismoilovna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Javlijev Nuriddin Bektemir o'g'li – i.f.f.d. (PhD).

06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari:

Shokirov Alisher Djuraboyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc);

Abdiyev Fozil Rashidovich – q.x.f.d. (DSc);

Sattorov Maqsud Axtamovich – q.x.f.d. (DSc);

Yuldashov Nurbek Ergashovich – v.f.d. (DSc);

Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich – q.x.f.d. (DSc), dotsent;

Namazov Ixtiyor Choriyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Xudayqulov Jonibek Bozarovich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o'g'li – q.x.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n., katta ilmiy xodim;

Atabayev Ma'ruf Maxmudovich – q.x.f.n. professor;

Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Kasimov Botir Sadriddinovich – q.x.f.f.d. (PhD);

Akramov Umiddilla Ikramdjanovich – q.x.f.n. dotsent;

Elboboyev Abdug'ani Shuxrat o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Muxammadov Yo'ldoshbek Akmal o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Maxmudova Shaxnoza Abdufattaxovna – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Idrisov Xusanjon Abdujabborovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent.

MUASSIS

Toshkent davlat agrar
universiteti

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

Manzil: Toshkent viloyati, Qibray
tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.

Jurnalning telegram manzili:

t.me/agrobiznes_elektronjurnal

E-mail: licht-1989@mail.ru

Jurnalning rasmiy sayti:

<https://www.agrobiznesjournal.uz>

Tel: +(998) 93 439 30 00

Jurnalning ilmiyligi:

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 30.11.2024-yildagi
№364/5-sonli qarori bilan
08.00.00-Iqtisodiyot fanlari
bo'yicha, 08.05.2025-yildagi
№370/5-sonli qarori bilan
06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari
bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy
ilmiy natijalarini chop etish
tavsiya etilgan milliy ilmiy
nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.

Elektron nashr, 673 sahifa.

E'lon qilishga 2026-yil 30-iyulda
ruxsat etildi.



JAMSHID SHODMONOV

The growth of online shopping in Uzbekistan and its impact on consumer behavior.....412

ERKABOYEVA JASMINA SAFARALI QIZI

Xususiy tadbirkorlik: kichik biznesning rivojlanishi va strategik yutuqlari.....426

TASHNAZAROVA SITORA FAXRIDDINOVNA

Sanoat tarmoqlarini rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanishning zaruriyati va o'ziga xos xususiyatlari.....432

ERGASHEVA SHAXZODA BAHROM QIZI

Sun'iy intellekt yordamida yashil iqtisodiyotni rivojlantirish.....442

BAHROM KAMILOVICH AVEZOV

Orol dengizi mintaqasida qashshoqlikni kamaytirish: ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik va institutsional yondashuvlarning ko'p o'lchovli tahlili.....448

MAHMUDOV QUDRATILLO XURSANDBEK O'G'LI

O'zbekiston tijorat banklarida kredit risklarini baholash va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish: xalqaro standartlar va milliy amaliyot.....458

QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI

OCHILDIEV UKTAM OLLANAZAROVICH

Surxondaryo viloyatida anor yetishtirishning agroteknologik xususiyatlari.....466

XUDAYQULOV JONIBEK BOZAROVICH, QASHQABOYEVA CHULPANOY TULKUNOVNA, ALISHEROV XASAN ALISHER O'G'LI

Dunyo mamlakatlari va O'zbekistonda sholini muttasil yetishtirishda mineral va organik o'g'itlar qo'llashning hosildorlikga ta'siri.....472

ЧОРИЕВА ЗАРХОЛ ҚОДИРОВА

Суғориш усуллари ва тартибини анор навлари фенологик фазаларининг ўтиш муддати ва давомийлигига таъсири.....478

MIRZASOLIYEV MIRZAOSIMJON MIRZASOYPOVICH

Oraliq ekin sharoitida turli ekish sxemalarining piyoz hosildorligiga ta'siri.....484

МАВЛОНОВА НАСИБА УМАРОВА

Оптимальный суғориш ва сув танқислиги шароитида ғўзанинг навлараро мураккаб дурагайларида олинган оила, тизма ва навида 1000 донна чигит вази белгисининг шаклланиши.....488

MUXTOROV O'ZBEKXON BURHONOVICH

Davlat mulkchiligi sharoitida qishloq xo'jaligi yerlarini me'yoriy baholashning gibril modeli: obyektiv va bozor signallarini integratsiyalash asosida.....493

YO'LDOSHEV NURBEK ERGASHOVICH, SAYFULLAEVA MAXBUBA ILXOMOVNA

«Alpek» mahalliy antigelmint substansiyasining quyonlarda o'tkir toksikligini klinik, gematologik va biokimyoviy baholash.....501

OCHILOVA MUXAYYO SHAKAR QIZI

Baholash natijalari asosida yer tuzish loyihalarini optimallashtirish.....509





YULDASHOV NURBEK ERGASHOVICH, ZAHRIDDINOVA GAVHAR HASAN

QIZI

Chorvachilik mahsulotlari xavfsizligini ta'minlashda go'sht va go'sht mahsulotlarini veterinariya-sanitariya jihatidan baholash usullari va ilmiy-amaliy ahamiyati.....516

MIRZASOLIYEV MIRZAOSIMJON MIRZASOYPOVICH, SHOKIROV ALISHER

JO'RABOYEVICH

Piyozni oraliq ekin sifatida ko'chatidan ekib yetishtirishda piyoz nav namunalarining rivojlanish bosqichlarini davomiyligi.....521

ТРЯНОВСКАЯ РАНО АБДУСАТТАРОВНА, ИСАМУХАМЕДОВ САЛИХ

ШУКУРОВИЧ

Сезонная динамика клинических показателей Африканских страусов разных возрастных групп в условиях Узбекистана.....526

TURDALIEV JAMOLBEK MO'MINALIEVICH, SANAQULOV SUXROB

FARMONQULOVICH

Teskari Osmos texnologiyasi yordamida minerallashgan kollektor-drenaj suvlarini tozalash va uning tuproq ekologik-meliorativ holatiga ta'siri.....531

BO'RIYEV ABROR NORTAJIYEVICH, NIZOMOV RUSTAM AXROLOVICH

No'sh piyozdan bosh piyoz yetishtirishda ekish sxemalarining iqtisodiy samaradorlikka ta'siri.....539

KAMALOVA NARGIZA MAXAMMADOVNA

Pomidorni kokteyl tipidagi duragay namunalarining hosildorligi.....545

OCHILOVA MUXAYYO SHAKAR QIZI

Yer tuzishni majmuaviy baholashning integrallashgan ko'rsatkichini shakllantirish va hisoblash algoritmi.....552

BOLTAYEV SAYDULLO MAQSUDOVICH, MELIYEVA FAROG'AT SHAVKAT

QIZI

Kuzgi bug'doyning (*Triticum Aestivum* L.) biometrik ko'rsatkichlari va hosil elementlarining shakllanishiga mineral o'g'itlarga qo'shimcha tabiiy adsorbentlarni qo'llashning ta'siri.....567

UZOQOV ADIXAMJON ABRORJON O'G'LI

Qator orasi va ko'chat qalinligining sholi hosili va don sifatiga ta'siri.....571

BOBOBEKOVA SHAROFAT DO'STNAZAR QIZI

Sug'oriladigan yerlarning sho'rlanish dinamikasi va meliorativ holatini baholash.....576

MUNIRA SHAVKATOVNA XUDAYQULOVA

Sabzavot loviyasi (*Phaseolus Vulgaris* L.)ning navlari o'sishi, dukkak shakllanishi va hosildorligiga ta'siri.....582

ESHONQULOV JAMOLIDDIN SAPORBOY O'G'LI, XUDAYBERGENOV NE'MATULLA MATKARIMOVICH, TO'XTAYEVA GULSHAN PO'LOTOVNA

Buxoro-10 (Sardor-1) va Porloq-1 g'o'za navlari ekilgan tajriba dalasi tuprog'ining suv o'tkazuvchanligi.....587

SAYFIDINOV XAYITMUROD ZIYEDULLAYEVICH

Ekish chuqurligi va minutuganak vaznining kartoshka Sante navi Palak hamda ildiz massasiga ta'siri.....591





UO'T: 633.18:631.543

QATOR ORASI VA KO'CHAT QALINLIGINING SHOLI HOSILI VA DON SIFATIGA TA'SIRI

UZOQOV ADIXAMJON ABRORJON O'G'LI

Sholichilik ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti

E-mail: uzoqovadahamjon@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0001-7910-697X>

Annotatsiya. Mazkur tadqiqotda sholini mexanizatsiyalashgan usulda ekishda qator orasi va ko'chat qalinligining don hosildorligi hamda donning texnologik sifat ko'rsatkichlariga ta'siri o'rganildi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, 15×14×2 sm ekish sxemasi har ikki navda eng yuqori hosildorlik va don sifatini ta'minlab, sholini samarali yetishtirish uchun maqbul variant ekanligi aniqlandi.

Kalit so'zlar: sholi, qator orasi, ko'chat qalinligi, hosildorlik, don sifati, mexanizatsiyalashgan ekish.

Аннотация. В статье изучено влияние ширины междурядий и густоты посадки рассады при механизированной посадке риса на урожайность зерна и его технологические показатели качества. Установлено, что схема посадки 15×14×2 см обеспечивает наибольшую урожайность и высокие технологические качества зерна у обоих сортов, что позволяет рекомендовать её для эффективного возделывания риса.

Ключевые слова: рис, ширина междурядий, густота рассады, урожайность, качество зерна, механизированная посадка.

Abstract. This study investigated the effects of row spacing and seedling density under mechanized rice transplanting on grain yield and technological grain quality. The results showed that the 15×14-2 cm planting pattern provided the highest grain yield and superior grain quality in both rice varieties, making it the most suitable planting scheme for efficient rice production.

Keywords: rice, row spacing, seedling density, grain yield, grain quality, mechanized transplanting.

KIRISH

Ma'lumki, sholi don hosildorligi boshqa donli ekinlar singari genetik xususiyatlar, agrotexnik tadbirlar va tashqi muhit omillarining o'zaro ta'siri natijasida shakllanadi. Don hosildorligining asosiy tarkibiy elementlariga birlik maydondagi mahsuldor ro'vaklar soni, har bir ro'vakdagi donlar soni, donning o'rtacha massasi hamda to'liq pishgan donlar ulushi kiradi. Ushbu ko'rsatkichlarning har biri alohida va birgalikda yakuniy hosil miqdori hamda uning sifatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Sholi donning texnologik sifat ko'rsatkichlari uning fizik, mexanik va biokimyoviy xususiyatlari majmuasi bilan belgilanadi. Mazkur ko'rsatkichlar donning qayta ishlashga yaroqliligi, tayyor mahsulot chiqimi, tovarbopligi hamda iste'mol xususiyatlarini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi. Asosiy texnologik sifat ko'rsatkichlari quyidagilardan iborat:

Po'stililik – don tarkibidagi gul po'stloqlarining ulushini ifodalaydi. Odatda bu ko'rsatkich 16–22 % ni tashkil etadi. Po'stililik darajasi past bo'lgan navlarda qayta ishlash jarayonida tozalangan guruch chiqimi yuqori bo'ladi.





Shishasimonlik – endospermning zichligi va shaffoflik darajasini tavsiflaydi. Shishasimon endospermga ega donlar qayta ishlash jarayonida kamroq sinadi, butun guruch chiqimi yuqori bo'ladi va oshpazlik sifati yaxshi saqlanadi.

Siniq guruch chiqishi – endospermida ichki yoriqlar mavjudligi bilan bog'liq bo'lib, donning mexanik mustahkamligini ifodalaydi. Yorilgan donlar po'stlog'ini ajratish va sayqallash jarayonida oson sinishi natijasida singan guruch ulushi ortib, mahsulot sifati hamda tovar qiymati pasayadi.

Guruch chiqimi – sholini qayta ishlash natijasida olinadigan umumiy guruch miqdori va undagi butun donlar ulushi bilan baholanadi. Butun donlar chiqimining yuqori bo'lishi qayta ishlash samaradorligining muhim mezonlaridan biri hisoblanadi.

Sayqallanish xususiyati – dondan po'stloq, kepak va murtakning oson ajralishi bilan tavsiflanadi. Bu xususiyat yuqori bo'lgan navlardan tashqi ko'rinishi oq, yaltiroq va yuqori tovarboplikka ega sayqallangan guruch olinadi.

Donning o'lchami va shakli uning qayta ishlash, pishirish hamda iste'mol xususiyatlarini belgilaydi. Ushbu belgilarga ko'ra guruch odatda quyidagi guruhlariga ajratiladi:

Uzun donli – don uzunligi 6,0 mm dan ortiq, uzunligi va kengligi nisbati 3:1 dan yuqori bo'ladi. Pishirish jarayonida donlar o'z shaklini yaxshi saqlaydi, bir-biriga yopishmaydi va mayin tuzilishga ega bo'ladi.

O'rta donli – don uzunligi 5,2–6,0 mm, uzunlik va kenglik nisbati 2,1–3,0 oralig'ida bo'ladi. Pishirilganda yumshoq tuzilish hosil qiladi va ayrim milliy taomlar uchun maqbul hisoblanadi.

Qisqa donli – don uzunligi 5,2 mm dan kichik, uzunlik va kenglik nisbati 2:1 dan past bo'ladi. Pishirish jarayonida kraxmal ajralishi yuqori bo'lib, donlar biroz yopishqoq holatga keladi.

Sholi seleksiyasi va urug'chiligi sohasida olib borilgan tadqiqotlar natijalari s'huni ko'rsatadiki, hosildorlikni oshiris'hda mahsuldor ro'vakdagi donlar soni muhim seleksion belgi hisoblanadi. Xususan, xorijiy tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, har bir ro'vakdagi donlar soni yuqori bo'lgan genotiplarni tanlab olis'h va seleksiya jarayoniga jalb etis'h yuqori hosildor navlarni yaratis'h imkoniyatini kengaytiradi [1, 2, 3]. Shu bois mazkur belgi s'holi o'simligining mahsuldorligini baholas'hda muhim morfobiologik ko'rsatkichlardan biri sifatida e'tirof etiladi.

Shuningdek, ro'vakdagi donlar sonining shakllanishi navning genetik xususiyatlari bilan bir qatorda ekish muddati, oziqlanis'h maydoni, mineral o'g'itlar me'yori, suv rejimi va boshqa agrotexnik omillarga ham bog'liq bo'lib, mazkur omillarning maqbul darajada ta'minlanis'hi hosildorlik salohiyatining to'liq namoyon bo'lis'higa xizmat qiladi.

MATERIALLAR VA USULLAR

Tadqiqotlar 2023–2025-yillarda Sholichilik ilmiy-tadqiqot instituti tajriba maydonida Sadaf va Iskandar sholi navlarida olib borildi. Tajribada 30 va 15 sm qator oralig'i hamda turli ko'chat qalinliklari qo'llanildi.





NATIJALAR VA MUNOZARA

Tadqiqot natijalariga ko'ra, qator orasi va ko'chat qalinligi sholining don hosildorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Har ikki navda ham 15 sm qator oralig'ida ko'chatlarning o'rtacha zichlikda joylashtirilishi yuqori hosil shakllanishini ta'minladi.

Sadaf navida eng yuqori o'rtacha don hosildorligi 15×14-2 sm ekish sxemasida (96 dona/m²) kuzatilib, 81,4 s/ga ni tashkil qildi. Bu ko'rsatkich 30×16-2 sm (42 dona/m²) variantiga nisbatan 19,8 s/ga, 30×14-2 sm variantiga nisbatan 17,9 s/ga va 30×12-2 sm variantiga nisbatan 12,7 s/ga yuqori bo'ldi. 15×16-2 sm variantida hosildorlik 74,9 s/ga ni tashkil etgan bo'lib, ko'chat zichligining kamayishi hosilning ma'lum darajada pasayishiga olib keldi.

1-jadval

Qator orasi va ko'chat qalinligining don hosildorligiga ta'siri

Var. №	Navlar	Qator orasi, sm	Ko'chat qalinligi, dona/m ²	Qaytariqlar bo'yicha don hosildorligi, s/ga			O'rtacha don hosildorlik s/ga
				2023	2024	2025	
1.	Sadaf	30×12-2	55	66,0	68,2	72,0	68,7
2.		30×14-2	48	63,1	62,3	65,1	63,5
3.		30×16-2	42	61,4	60,2	63,4	61,6
4.		15×12-2	110	71,6	72,6	70,4	71,5
5.		15×14-2	96	79,8	83,7	80,7	81,4
6.		15×16-2	84	69,8	77,6	77,4	74,9
7.	Iskandar	30×12-2	55	64,3	66,4	66,8	65,8
8.		30×14-2	48	59,7	63,1	62,6	61,8
9.		30×16-2	42	58,5	61,7	58,8	59,6
10.		15×12-2	110	79,9	73,9	72,6	75,4
11.		15×14-2	96	82,9	79,8	83,1	81,9
12.		15×16-2	84	77,4	74,7	79,5	77,2

Iskandar navida ham xuddi shunday qonuniyat kuzatildi. Eng yuqori o'rtacha hosildorlik 15×14-2 sm ekish sxemasida 81,9 s/ga ni tashkil qildi. Bu 30×16-2 sm variantidan 22,3 s/ga, 30×14-2 sm variantidan 20,1 s/ga va 30×12×2 sm variantidan 16,1 s/ga yuqori bo'ldi. 15×12-2 sm variantida ko'chatlar zichligi ortiqcha bo'lganligi sababli hosil 75,4 s/ga gacha kamaygan, 15×16-2 sm variantida esa ko'chatlar siyrak joylashishi natijasida 77,2 s/ga hosil olingan.

Iskandar navida ham xuddi shunday qonuniyat kuzatildi. Eng yuqori o'rtacha hosildorlik 15×14-2 sm ekish sxemasida 81,9 s/ga ni tashkil qildi. Bu 30×16-2 sm variantidan 22,3 s/ga, 30×14-2 sm variantidan 20,1 s/ga va 30×12-2 sm variantidan 16,1 s/ga yuqori bo'ldi. 15×12-2 sm variantida ko'chatlar zichligi ortiqcha bo'lganligi sababli hosil 75,4 s/ga gacha kamaygan, 15×16-2 sm variantida esa ko'chatlar siyrak joylashishi natijasida 77,2 s/ga hosil olingan. Tajriba natijalari qator orasi va ko'chat qalinligi nafaqat don hosildorligiga, balki donning texnologik sifat ko'rsatkichlariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatganini ko'rsatdi.





Sadaf navida eng yaxshi texnologik sifat ko'rsatkichlari 15×14-2 sm ekish sxemasida qayd etildi. Ushbu variantda umumiy guruch chiqishi 67,2 %, butun guruch chiqishi 72,4 %, shishasimonlik 94,2 % ni tashkil qildi. Boshqa variantlarga nisbatan qobiq chiqishi biroz past (20,4 %) bo'lib, bu qayta ishlash samaradorligining yuqori bo'lishini ko'rsatadi.

Iskandar navida ham eng yuqori texnologik ko'rsatkichlar 15×14-2 sm variantida aniqlandi. Unda qobiq chiqishi 17,8 %, umumiy guruch chiqishi 73,6 %, butun guruch chiqishi 94,8 % hamda shishasimonlik 97,5 % ga yetdi. Bu boshqa ekish sxemalariga nisbatan yuqori bo'lib, mazkur nav uchun ushbu ekish sxemasi don sifati nuqtai nazaridan ham eng maqbul ekanligini tasdiqlaydi

2-jadval

Qator orasi va ko'chat qalinligining sholi doni texnologik sifat ko'rsatkichlariga ta'siri

Ekish sxemasi	Ko'chat qalinligi, ming dona/ga	Qobiq chiqishi, %	Umumiy guruch chiqishi, %	Butun guruch chiqishi, %	Shishasimonlik, %
Sadaf					
30x12-2	554	20,7	64,4	68,7	91,2
30x14-2	476	20,5	66,3	70,6	92,8
30x16-2	416	20,6	65,3	69,7	91,9
15x12-2	1110	20,5	66,4	71,0	93,3
15x14-2	952	20,4	67,2	72,4	94,2
15x16-2	832	20,5	66,8	71,8	93,7
Iskandar					
30x12-2	554	18,0	71,0	91,3	95,0
30x14-2	476	17,9	72,7	93,4	96,4
30x16-2	416	18,0	71,9	92,3	95,7
15x12-2	1110	17,9	72,9	93,7	96,8
15x14-2	952	17,8	73,6	94,8	97,5
15x16-2	832	17,9	73,2	94,1	97,0

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, sholini ekishda qator orasi va ko'chat qalinligini to'g'ri tanlash don hosildorligi hamda donning texnologik sifat ko'rsatkichlarini shakllantiruvchi asosiy agrotexnik omillardan biri hisoblanadi. Har ikki navda ham 15 sm qator oralig'ida va 15×14-2 sm ekish sxemasida (952 ming dona/ga) o'simliklarning oziqlanish maydoni va yorug'lik bilan ta'minlanishi eng maqbul bo'lib, bu eng yuqori don hosildorligi va don sifati ko'rsatkichlarini ta'minladi.

Jumladan, Sadaf navida mazkur ekish sxemasida o'rtacha don hosildorligi 81,4 s/ga, Iskandar navida esa 81,9 s/ga ni tashkil qildi. Shuningdek, aynan ushbu variantda umumiy guruch chiqishi, butun guruch chiqishi va shishasimonlik ko'rsatkichlari ham eng yuqori darajada qayd etildi.

Demak, tajriba natijalariga asosan 15×14-2 sm ekish sxemasi (952 ming dona/ga) har ikki nav uchun eng maqbul variant sifatida tavsiya etiladi. Ushbu





ekish sxemasi yuqori va barqaror hosil olish, donning texnologik sifatini yaxshilash hamda sholini mexanizatsiyalashgan usulda samarali yetishtirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Huang X., Qian Q., Liu Zh., Sun H., He S'h., Luo D., Guangmin Xia G., Chu Ch., Jiayang Li J., Fu X. Natural variation at the DEP1 locus enhances grain yield in rice. *Nature Genetics*, 2009. V. 41. № 4. P. 493-497.
2. Zhang Y., Luo L., Liu T., Xu C., Xing Y. Four rice QTL controlling number of spikelets per panicle expressed the characteristics of single Mendelian gene in near isogenic backgrounds. *Theor. Appl. Genet.*, 2009. 118. P. 1035-1044.
3. Johnson H.W., Robinson H.F., Comstock R.E. Genotypic and phenotypic correlations in soyabean and their implication in selection // *Agronomy J.*, 1955. 47. P. 477-483.



2026-yil, iyul. №7-son.

Mas'ul muharrir: Beglayev Uchqun

Musahhih: Boltayev Nurali

Sahifalovchi va dizaynerlar: Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru

Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal

Telefon raqami: +998939018320, +998934393000

Jurnal rasmiy sayti: <https://www.agrobiznesjournal.uz>

"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo'yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.



"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669225** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №083688

**Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani,
Universitet ko'chasi, 2-uy**